

Viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i tanishtirildi



Surxondaryo viloyat hokimligida faollar yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda viloyat hokimi To'ra Bobolov, Davlat soliq qo'mitasi raisi Sherzod Kudbiev, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, hokimlik apparati mas'ul xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, viloyat davlat soliq boshqarmasining shahar va tumanlar bo'lim boshliqlari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.

https://t.me/axborot_xizmati

Yig'ilishda so'zga chiqqan Davlat soliq qo'mitasi raisi Sh.Kudbiev Prezidentning tegishli qarori bilan Surxondaryo viloyati Davlat soliq boshqarmasi boshlig'i Sirojiddin Eshmatov Davlat soliq qo'mitasi raisining o'rinbosari lavozimiga tayinlanganligi munosabati bilan viloyat davlat soliq boshqarmasi boshlig'i lavozimiga shu kungacha Jizzax viloyati davlat soliq boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari lavozimida ishlab kelayotgan Erkin Narmanov tayinlanganligini ma'lum qildi.